



Korxonalar va tashkilotlar

(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-sentyabr holatiga

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– sentabr holatiga

2018 yilning yanvar-sentabr oyida Jizzax viloyatida 2209 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 503 taga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,9 % ga kamaygan hamda ularning soni 525 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1795 ta (14,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13816 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Jizzax shahrida 4,2 %, Sharof Rashidov 2,3 %, Zomin va G'allaorol 1,1 % tumanlarida kuzatilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Jizzax viloyatida	14535	100	13816	100
Jizzax sh.	4409	30,3	4191	30,3
tumanlar:				
Arnasoy	426	2,9	426	3,1
Baxmal	859	5,9	797	5,8
G'allaorol	1108	7,6	1104	8,0
Sharof Rashidov	2350	16,2	2285	16,5
Do'stlik	604	4,2	558	4,0
Zomin	1175	8,1	1143	8,3
Zarbdor	685	4,7	660	4,8
Zafarobod	420	2,9	358	2,6
Mirzacho'l	526	3,6	455	3,3
Paxtakor	615	4,2	557	4,0
Forish	1039	7,1	971	7,0
Yangiobod	319	2,3	311	2,3


Korxonalar va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 18,5 % savdoda, 15,5 % sanoatda, 15,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 9,3 % qurilishda, 6,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 28,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi



Korxonalar va tashkilotlar

2018 yil yanvar-sentabr holatiga Jizzax viloyatida 2209 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 29,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahrida (536 ta), Sharof Rashidov (337 ta), Zomin (190 ta) va Forish (179 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (54 ta), Mirzacho'l (62 ta) hamda Arnasoy (77 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (8804 ta), sanoatda (8538 ta), qurilishda (4928 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4533 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (937 ta), axborot va aloqada (945 ta) hamda tashish va saqlashda (1528 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-sentabr holatiga.	2018 yil yanvar-sentabr holatiga.
Jami:	1706	2209
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	491	490
Sanoat	329	411
Qurilish	134	220
Savdo	204	328
Tashish va saqlash	47	50
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	135	125
Axborot va aloqa	18	16
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	26	18
Boshqa turlari	322	551

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktabr holatiga 10523 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3768 ta, oilaviy korxonalar – 423 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 5987 ta, va boshqalar 345 tani tashkil etadi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 112 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 68,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalaridan 89 tasi qo'shma korxonalar, 23 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Korxonalar va tashkilotlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar 54 ta (48,2 %), Zomin 11 ta (9,8 %), G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari 8 ta (7,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Zafarobod 1 ta (0,9 %), Mirzacho'l va Yangiobod 2 ta (1,8 %), Arnasoy, Baxmal va Zarbdor tumanlari 3 ta (2,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


Korxonalar va tashkilotlar

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 66 ta (58,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 17 ta (15,2 %), savdoda 16 ta (14,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (4,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va axborot va aloqada 1 ta (0,9 %), qurilishda va tashish va saqlashda 3 ta (2,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-sentabr oyida Jizzax viloyatida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 36 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga ko'paygan.

Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 14 ta, Rossiya Federatsiyasi – 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 7 ta, Islom Respublikasi -1 , Afg'oniston - 2 ta, Isroil Respublikasi - 2 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 2 ta, Turkmaniston Respublikasi – 1 ta, Amerika Qo'shma Shtatlarida — 1 ta, Koreya Xalq-Demokratik Respublikasi -1 ta, Saudiya Arabistoni Qirolligi –1 ta va Pokiston Islom Respublikasidan – 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-sentabr holatiga) birlikda



Korxonalar va tashkilotlar

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 13 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11 ta, savdoda 8 ta, qurilishda 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10771 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktabr holatiga qaraganda 15,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3495 tasi (32,4 %) Jizzax shahriga, 1968 tasi (18,3 %) Sharof Rashidov, 843 tasi (7,8 %) Gallaorol hamda 831 tasi (7,7 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 257,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2548 tasi (23,7 %) – savdoda, 2128 tasi (19,8 %) - sanoatda, 2049 tasi (19,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1287 tasi (11,9 %) - qurilishda, 930 tasi (8,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 493 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 147 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 124 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1065 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentabr holatiga 1804 dan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,8 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida (453 ta), Sharof Rashidov (280 ta), Baxmal (152 ta) va G'allaorol tumanlarida (151 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (39 ta), Mirzacho'l (48 ta) hamda Zafarobod (56 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (487 ta), sanoatda (409 ta), savdoda (328 ta) va qurilishda (220 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (16 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta) hamda tashish va saqlashda (50 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktabr holatiga 494 tani tashkil etib, ulardan 463 tasi yoki 93,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **36,5** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Korxonalar va tashkilotlar

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 40,6 % yoki 188 tasi sanoat, 26,1 % yoki 121 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,4 % yoki 76 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,3 % yoki 43 tasi savdo, 1,1 % yoki 5 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 5,9 % yoki 27 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
J.Yo'ldoshev
(0371) 230-83-65,66

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan